

## **MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARI ORQALI TALABALARGA KURASHISH SABOQLARINI O'RGATISH**

*Muratov Muzaffar Shermamatovich*


*Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Samarqand O'zbekiston.*

**Annotatsiya:** “O'zbek kurashi turlari va uni o'qitish metodikasi” fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar mazkur fandan o'zlashtirgan nazariy ma'lumotlarni, bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish hamda ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlar mashqlar, amaliy qo'l ishlari, mustaqil topshiriqlar, o'yinli mashqlar, pedagogik vazifalar, seminarlar, munozaralar, treninglar, annotatsiyalar tuzish, adabiyotlarni konspektlashtirish, jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish, referatlar yozish namunaga qarab mashqlarni ijro etish, ko'rsatmalarni bajarish kabilardan iborat. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarga nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llashda quyidagi ko'rsatmalar beriladi. - mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlarni chuqur o'rganib chiqish; - tavsiya etilgan adabiyotlarni ko'rsatmalar asosida diqqat bilan o'qib chiqish; - manbalarda ko'rsatilgan qonunlarning to'g'riliqi, ishonchlilagini aniqlash; - tavsiya etilgan ma'lumotlarni taqqoslash, muhimlarini ajratish, umumlashtirish; - o'rganilgan materialarni kuzatish va tajribadan o'tkazish, qo'llash va h.k. Amaliy mashg'ulotlarda o'qitishning faol metodlaridan unumli foydalanishi maqsadga erishishni osonlashtiradi. Olingan bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirishni tezlashtiradi. Shu sabab qo'llaniladigan metodlar o'quv materiallarini aniq takrorlashga, esda saqlashga, to'g'ri bajarishga qaratilgan bo'lmos'i lozim.

**Kalit so'zlar:** Keys stadi, DX, Zero, Qarshi usullar: ko'krakdan oshirib uloqtirish, Hujumchi oyog'ini.

**Asosiy qisim:** Mashg'ulotning maqsadi: umumiyo rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berish, kurashchining umumjismoniy tayyorgarligini ta'minlash va harakatlantiruvchi jismoniy sifatlarni rivojlantirishni, talabalarda milliy iftixor va g'ururni shakllantirish, tafakkur va irodani mustahkamlash. Mashg'ulot jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi: 1. Milliy kurashning xususiyatlari va kurashchining individual qobiliyatining rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligi haqida ma'lumot berish. 2. Talabalarning mavzu mazmunini mukammal o'zlashtirishlariga erishish. 3. Umumrivojlantiruvchi mashqlar - kuch, tezlik, chaqqonlik, cho'ziluvchanlik, egiluvchanliklarni amalda bajarishni o'rgatadi. 4. Kurashchining jismoniy tayyorgarligini ta'minlovchi vositalar va metodlarni tushuntirish. 5. Kurashchining jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullantirish. Mashg'ulot jarayonidagi qo'llanuvchi interfaol metodlar: suhbat,

savol-javob, 5x5x5 hamda “Keys stadi” metodi. Mashg’ulot shakli: seminar-amaliy. Ajratilgan vaqt: 4 soat O’tkaziladigan joy: - amaliy mashg’ulot xonasi. Mashg’ulotning rejasi: 1. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar va maxsus jismoniy tayyorgarlik. 2. Kuch va uni rivojlantirish. 3. Chaqqonlik, egiluvchanlikni rivojlantirish. 4. Maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari va metodlari. Tajribaning ko’rsatishiga talabalarning mashg’ulotlarda faolliklarini oshirish, mustaqil ishlash va mustaqil fikr oshirishlarida “Keys stadi” metodidan foydalanish samarali bo’ladi. Zero, “Keys stadi” yoki vaziyatni oddiy tafsilotdan farqli o’laroq, o’quv materiallarini o’zlashtirish uchun ko’maklashtiruvchi axborotni o’z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning yechim yo’llarini izlash orqali erishiladi”. Mashg’ulotlar “Keys stadi” metodi bo’yicha tashkil qilinganda talabalarda fikrlash, mulohaza yuritish, voqealarni taqqoslash, tezkor xulosalar chiqarish rivojlanadi. Kurashchi jismoniy tayyorgarligining vositalari va metodlari. Kurashchining har tomonlama rivojlanishiga, maxsus sifatlarining takomillashishiga, kurashchining boshqa faoliyatga o’tishiga hamda jismoniy tayyorgarlikning ko’nikma va malakalarini egallashlariga yordam beradi.



*2-rasm.Juft tushadigan umbaloq oshish mashqlari.*

**KURASH USULLARI:** Kurashchi raqib yaktagini qulay joyidan ushlab, muvozanatdan chiqarib, o’ziga ishonch hosil qilib, har tomondan to’xtamasdan oyoq

bilan urib bajaradigan barcha usullar «Qo'shsha» deb nomlanadi. Orqadan, tashqaridan qo'shsha qilish: raqib orqaga olgan paytda tashlash usulini bajarish qulay. DX — kurashchilarning olishuvni boshlash holati. Ushlash yenglarning ikki umizidan olingan1. Hujumchi oyoq bilan raqibni tayanib turgan oyog'iga yaqinlashib, chil solish. 2,3,4,5. Raqibning oyog'i tomonga uning tayanchini o'tkaza borib, o'sha oyog'iga hujumchi oyoq, bilan silkitib va shu oyoqqa 132 raqibning chap yoki o'ng oyog'ini mindirib, uni burab, orqasi bilan gilamga uloqtirish. Ushlash variantlari: yengdan va oyoq qaytarmasidan; yengdan va oyoqdan; yengdan va umizidan; ikkala umizidan; yengdan va yaktakning yelka qismidan; belbog'dan va oyoq qaytarmasidan. Aldamchi harakatlar: ichkaridan supurish; oldindan chalish; tovon bilan ichkaridan ilib olish; orqadan chalish. Himoya: qarshilik ko'rsatayotgan tomondan qarama-qarshi tomonga egilish; hujumdagi oyog'ini orqaroqqa qo'yib, raqibga ko'krak bilan burilish: raqibning orqa tomoniga qadam qo'yish; hujumchini hujum qilgan oyog'i tomonga burab yiqitish. Qarshi usullar: hujumdagi oyoq yordamida oldidan supurish; hujumchini hujumdagi oyoq yordamida beldan oshirib uloqtirish; ko'krakdan oshirib, orqaga qayishib uloqtirish. Ikki oyoq pastidan qo'shsha: raqib oldinga bukilgan yoki harakat qilayotgan paytda bu usulni bajarish qulay; DX — Raqibning olishuvni boshlash holati. Ushlash yengdan va oyoq qaytarmasidan bajarilgan. 1. Raqibga qarab yarim qadam qo'yib, oyoq yuzini ichkariga burib, shu vaqtning o'zida raqibning tayanch nuqtasini qo'llar yordamida chap oyoq tovoni uchiga o'tkazish; 2. Raqibni muvozanatdan chiqarayotib, chap oyoqda o'tirib va oyoqni ozroq egish bilan raqibga yaqinroq qo'yish. (21-rasm. 1,2,3,4,5,6 ko'rinishlar). 3, 4, 5, 6. Raqibning chap yoki o'ng oyog'ini pastdan urib ko'tarib yuborib, qo'shsha qilib uning gavdasini aylana shaklida yonga, oldinga, pastga burab yuborib yelkalari bilan gilamga uloqtirish. Ushlash variantlari: yeng umizidan va oyoq qaytarmasidan; yengning ikki umizidan. Aldamchi harakatlar: orqadan chalish; tashqaridan oyoq tovonini ildirib tashlash. Himoya: raqibning orqasiga o'tib olmoq; chap yoki o'ng oyoqni tovon bilan ilib olmoq; raqib burilgan tomoniga hamohang holda yurmoq; raqib qo'llariga tiralib, biroz pasaymoq; gavdani rostlamoq va hujumda bo'limgan oyoqni oldinga qo'ygan holda raqibga yon tomon bilan turmoq. Qarshi usullar: ko'krakdan oshirib uloqtirish; orqa bilan keskin burilish. Uchraydigan xatolar: hujumchi oyoqni raqibga yaqin qo'yilishi; raqibning muvozanati yetarli kuch bilan hujumchi oyog'iga o'tkazilmagan; kurashchi tayanch oyog'ini yetmagan va gavdani pasaytirmagan. Ichkaridan qo'shsha: raqib oyoqlarini keng qo'yib oldinga egilganda yoki harakatlanganda usulni bajarish qulay; DX — raqibning olishuvni boshlash holati. Ushlash chap yoki o'ng yengdan va oyoq qaytarmasidan. 1. Hujumchi oyog'ini yarim qadam oldinga qo'yib, oyoq yuzini ichkariga burish 2. Bir vaqtning o'zida raqibning muvozanatini hujumdagi oyoq tovoni uchiga keltirish, raqibni muvozanatdan chiqara turib, hujum134 dagi oyoqda aylanib, tayanch oyoqni raqibga yaqin qo'yib, tayanch oyog'ini biroz bukish. 3,4,5,6. Raqibni

hujumchi oyoqqa mindirgan holda qo'lllar yordamida uning gavdasini o'ngga, pastga, yonga, ostiga burab yelkasiga uloqtirish. Ushlash variantlari: yengdan va oyoq qaytarmasidan; yengdan va oyoqdan; yengdan va yaktakning yelka qismidan; ikkala yengning umizidan. Aldamchi harakatlar: tashkaridan oyoqg'ozi bilan ildirish; ichkaridan oyoq kafti bilan supurma qilish; ichkaridan boldir bilan ildirib olish; muvozanatdan chiqarish. Himoya: raqib orqasiga o'tib olish; raqib burilgan tomonga o'tib olish; hujumchi ustidan o'tib olish; qo'lllar bilan hujumchini itargan holda o'tirib olish. Kurash usullar: boldir bilan bir xil nomli oyoqni tashqaridan ildirish; hujumchi oyog'i ustidan oyog'ini tortib olib, gavdasini oldinga burib yuborish; orqaga qayishgan holda hujumchini uloqtirish; yengi va belbog'idan ushlab oldinga aylantirib, (yuklama) usulini qo'llab uloqtirish.

**Xulosa:** Uchraydigan xatolar: hujumchi oyoqni raqibga yaqin qo'yilishi; raqibning muvozanati yetarli kuch bilan hujumchi oyog'iga o'tkazilmagan; kurashchi tayanch oyog'ini yetmagan va gavdani pasaytirmagan. Ichkaridan qo'shsha: raqib oyoqlarini keng qo'yib oldinga egilganda yoki harakatlanganda usulni bajarish qulay; DX — raqibning olishuvni boshlash holati. Ushlash chap yoki o'ng yengdan va oyoq qaytarmasidan. 1. Hujumchi oyog'ini yarim qadam oldinga qo'yib, oyoq yuzini ichkariga burish 2. Bir vaqtning o'zida raqibning muvozanatini hujumdag'i oyoq tovoni uchiga keltirish, raqibni muvozanatdan chiqara turib, hujum134 dagi oyoqda aylanib, tayanch oyoqni raqibga yaqin qo'yib, tayanch oyog'ini biroz bukish. 3,4,5,6. Raqibni hujumchi oyoqqa mindirgan holda qo'lllar yordamida uning gavdasini o'ngga, pastga, yonga, ostiga burab yelkasiga uloqtirish.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Shermamatovich , M., Yalgashevich , K., & Narkulovich , S. (2021). The development of physical preparedness of student young people. *Journal of Psychology and Education* , 58 (1), 2699-2704.
2. Shermamatovich , MM, Tursunovna , HU, Zayniddinovich , NI, Boltayevich , AS, & Yalgashevich , KS (2021). Physical education of student youth in modern conditions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* , 11 (2), 1589-1593.
3. Shermamatovich , MM (2023). Psychological Description Of Sport And Psychological Development Of Sportsmen. *Eurasian Research Bulletin* , 17 , 7-9.
4. Shermamatovich , MM, Norkulovich , SK, & Tursunovna , HU (2022). PLACE AND ROLE OF PSYCHOLOGICAL AND VOCATIONAL TRAINING IN THE TRAINING PROCESS OF STUDENTS-BOXERS. *World Bulletin of Management and Law* , 8 , 141-144.
5. Shermamatovich , MM, & Boltaevich , A. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL CULTURE. *World Bulletin of Management and Law* , 7 , 99-100.

6. Shermamatovich , MM, & Boltaevich , A. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL CULTURE. *World Bulletin of Management and Law* , 7 , 99-100.
7. Shermamatovich , MM, Zayniddinovich , NI, Boltaevich , AS, Norkulovich , SQ, Muzaffarovich , SA, & Abrievich , EQ Endurance Formation in General Physical Training Students. *International Journal on Integrated Education* , 4 (3), 356-359.
8. Yalgashevich , XS, & Shermamatovich , MM Enhancing Athletes' Regained Performance Through Rational Nutrition. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* , (1), 1-6.
9. Shermamatovich , MM, & Latif, T. (2023). DEVELOPMENT OF SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research* , 11 (3), 374-377.
10. Shermamatovich , MM, & Aykhonovich , TM (2024). PROBLEMS OF STUDENTS' STUDY OF TECHNICAL AND TACTICAL PREPARATION FOR FOOTBALL. *Journal of new century innovations*, 44(1), 84-87.
11. Shermamatovich , MM (2023). THE SPORT OF WRESTLING AND THE LAWS OF THE FIELD OF WRESTLING. *ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS*, 3(5), 84-88.
12. Shermamatovich , MM (2023). DEVELOPMENT OF WRESTLING SPORTS IN UZBEKISTAN AND AWAKENING OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM IN STUDENTS. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(5), 36-39.
13. Muradov Victorious Shermamatovich , Normakhmatov Inspiration Zayniddinovich , Akhmedjanov Fame Boltayevich , Ziyatov Muhammed Nomozovich , Sattarov Opposite Norkulovich , & Khusainov Shamshidin Yalgashevich . (2024). PROPOSALS ON INNOVATIVE SOLUTIONS OF ORGANIZING THE ARCHITECTURE OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES. *Journal of Advanced Zoology* , 45 (S2), 131–135. <https://doi.org/10.53555/jaz.v45iS2.3852>
14. THE BENEFITS OF MORNING PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL PREPARATION TO THE HUMAN ORGANISM NI Zayniddinovich - 2023
15. FORENSIC ASSESSMENT OF THE NATURE OF DENTAL INJURIES OA Ergashevich , SE Islamov , NI Zainitdinovich - *The American Journal of Medical Sciences* and ..., 2022
16. IMPROVING THE METHOD OF TRAINING BOXERS WITH THE APPLICATION OF PROTECTION" LEAVING TO THE SIDE"
17. AS Boltaevich , NI Zainiddinovich
18. World Bulletin of Management and Law 8, 139-140 , 2022
19. ZASHCHITA PRAV P ATSI ENTA PRI PROVEDENII MEDITSINSKIX EKSPERIMENTOV

- 20.ShE Islamov, KN Urakov , IZ Normakhmatov - Tverskoy Meditsinsky Journal Uchrediteli ...
- 21.PROPOSALS ON INNOVATIVE SOLUTIONS OF ORGANIZING THE ARCHITECTURE OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES
- 22.MMSNIZASBZMNSQNKS Yalgashevich Journal of Advanced Zoology, 2 (45(S2),), 131–135. , 2024
- 23.MORFOFUNKTsIONALNOE SOSTOYaNIE NADPOCHECHNIKOV PRI VVEDENII DISTILLIROVANNOY VODY
- 24.Sh Islamov, N Makhmatmuradova , I Normakhmatov Journal of hepatogastroenterological studies 2 (3.1), 22-28 , 2021
- 25.SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF THE ACTIVITY OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS NI Zayniddinovich Journal Of New Century Innovations 4 (No. 1 (2024):), 133-135 , 2024
- 26.ASPEKTY ISPOLZOVANIYA KOMANDNYX SPORTOV I SOVREMENNYX PEDAGOGICHESKIH TECHNOLOGIY NA ZANYaTIYAX FIZIChESKOGO VOSPITANIYA I SPORTA IZ Normahmatov [https://academicsresearch.ru/public/journals/17/cover\\_issue\\_133\\_en\\_US.jpg](https://academicsresearch.ru/public/journals/17/cover_issue_133_en_US.jpg) 2 ... , 2024
- 27.IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN PRIMARY CLASS CHILDREN NI Zainiddinovich International Journal of Formal 3 (3), 66–69. , 2024
- 28.THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF SPORTS AND GAMES IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION NI Zayniddinovich Genius Journals Publishing Group, 17 (ISSN: 2795-7365), 10-12 , 2023
- 29.THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF SPORTS AND GAMES IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION NI Zayniddinovich <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb>, Genius Journals Publishing Group, 17 (ISSN: 2795-7365), 10-12 , 2023
- 30.Basic Football ElementsTerms and Conditions and Cluster -Based Training of Tasks NI Zayniddinovich ProcediaofPhilosophicalandPedagogicalSciences 2 (Issue –11), 106-108 , 2023
- 31.The Role Of Physical Culture In The Life Of Students
- 32.Normakhmatov Inspiration Zayniddinovich international journal of scientific & technological research volume 10 ( isn ... , 2021
- 33.Husainov Sh . Yes . i Dr. PREIMUSHchESTVA COMMANDNYX GOODBYE SPORTS DLYa ADAPT ATSI ONNYX VOZMOJNOSTEY STUDENT : New Uzbekistan in development studies place and development factors // New Uzbekistan in development studies place and development factors . - 2024. - T. 6. – no. 1. - S. 47-55.
- 34.Shermamatovich MM, Yalgashevich XS, Muzaffar son SA WRESTLING QUALIFYING: New Uzbekistan in development studies place and development

- factors // New Uzbekistan in development studies place and development factors . - 2024. - T. 6. - no. 1. - S. 69-75.
- 35.Shermamatovich MM The Role of Physical Education in Our Life //International Journal of Formal Education. - 2024. - T. 3. – no. 3. - S. 63-65.
- 36.Muratov M. Sh ., son Shermamatov A. M. USE OBRAZOVATELNYX Methodov V OBUChENII FIZICHESKOMU VOSPITANIYU //Modern Scientific Research International Scientific Journal. - 2024. - T. 2. – no. 3. - S. 186-192.
- 37.Shermatovich MM ASPECTS OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS LESSONS //Journal of new century innovations. - 2024. - T. 48. – no. 1. - S. 130-132.
- 38.Shermamatovich MM et al. Proposals On Innovative Solutions Of Organizing The Architecture Of Multifunctional Sports Facilities //Journal of Advanced Zoology. - 2024. - T. 45.
- 39.Shermamatovich MM, Aykhonovich TM PROBLEMS OF STUDYING TECHNICAL AND TACTICAL ASPECTS OF STUDENTS' FOOTBALL PREPARATION //Journal of new century innovations. - 2024. - T. 44. – no. 1. - S. 84-87.